



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI 33 YOSHDA

Nasirdinov Dilmurod Ergashalievich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining 33 yilligiga bag'ishlangan bo'lib, birgina 2024 yilda dunyo sahnasida erishilgan yutuqlari shuningdek qo'shni davlatlar bilan o'quv mashg'ulotlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Qurolli kuchlar, Mudofaa vaziri, tank, samalyot, harbiy, suverenitet, armiya, qurolli mojarolar.

Аннотация. Статья посвящена 33-летию Вооруженных Сил Республики Узбекистан и содержит информацию о достижениях, достигнутых на мировой арене только в 2024 году, а также об учебных занятиях с соседними странами.

Ключевые слова: Вооруженные Силы, Министр обороны, танк, самолет, военные, суверенитет, армия, Вооруженные конфликты.

Annotation. The article is dedicated to the 33rd anniversary of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and contains information about the achievements achieved on the world stage only in 2024, as well as about training sessions with neighboring countries.

Keywords: Armed Forces, Minister of Defense, tank, aircraft, military, sovereignty, army, Armed conflicts.



O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari - O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘silmalar va qismlarni o‘z ichiga oladi.



O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo‘linmalar, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo‘sishnları, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismları, Chegara qo‘sishlaridan tashkil topgan.





2024-yilga kelib O‘zbekiston armiyasi jahonning 145 mamlakati qurolli kuchlarida o‘rin olgan jahon armiyalari reytingida 65-o‘rinni egalladi [1]. Bu haqda yangilangan Global Firepower reytingida axborot berilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistondan tashqar Qozog‘iston ham reytingdan o‘rin olgan bo‘lib, GFP uni 58-o‘ringa joylashtirgan. O‘zbekistonga hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar orasida Turkmaniston 83-o‘rinni, Qirg‘iziston 100-o‘rinni va Tojikiston 107-o‘rinni egallagan.

Global Fire Power ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston qurolli kuchlari uchun yiliga **796,8 mln dollar ajratadi. Mamlakatimizda 68.000 harbiy xizmatchi bo‘lib, shulardan 48.000 harbiy xizmatchi** faol navbatchilikda.

Ixtiyorida hozirgi vaqtida 165 ta tank, 3300 ta BTR (zirhli transport vositasi), 115 ta shulardan 35 ta qiruvchi samolyot, 65 ta vertolyot, xususan, 35 ta hujumkor vertolyot va boshqa ko‘plab qurol-aslahaga ega, qurol ko‘tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo‘lgan aholisi soni esa 18 milliondan oshadi.

GFP O‘zbekiston haqidagi ma’lumotlarni Markaziy razvedka boshqarmasi sayti, MRBning World Factbook to‘plami ma’lumotlari, „Vikipediya“ va ochiq manbalardagi boshqa ma’lumotlarga asoslanib tuzib chiqqan.

2024 yil AQSH va Juhon hisoboti jurnali yangiliklari ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston armiyasi dunyoning eng kuchli armiyalarining 89 ta kuchli davlatlar ichidagi reytingida 19-o‘rinni egalladi [2]. Ma’lumotlar “News and World Report” nashrning veb-saytida keltirilgan. Unda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Qozog‘iston Respublikasi 22-o‘rinni egallagan. Tojikiston va Turkmaniston ushbu ro‘yxatdan o‘rin olmagan. Etakchi o‘rnlarni Rossiya, AQSH, Isroil, Xitoy va Janubiy Koreya egallagan. Singapur ro‘yxatning oxiridan o‘rin olgan. AQSH yangiliklari va Juhon hisobotlari reytingi global fikr so‘roviga asoslangan.



O‘zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasi 2024 yilda Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan “Kembriya patruli” musobaqasida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ular 80 kilometrlik yo‘lni, jang maydoniga yaqin shart-sharoitlarda bosib o‘tib, kumush medalga sazovor bo‘lishdi. Buyuk Britaniya harbiy mutaxassislari o‘zbek askarlarining mahorat va matonatini yuqori baholadi.

Bundan tashqari, 2024 yilda O‘zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasi Janubiy Koreyada o‘tkazilgan ilmiy-harbiy tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro musobaqlarning mutloq g‘olibiga aylandi. Ochilish marosimida Janubiy Koreya Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig‘i Pak An So ushbu musobaqalarning xalqaro harbiy hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari qardosh, xalqaro sheriklar bilan ham hamkorlikni faol rivojlanmoqda. 2024 yilda Qozog‘iston hududida o‘tkazilgan “Birlestik – 2024” o‘quv mashg‘ulotlari doirasida o‘zbek harbiylari Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston harbiylari bilan birgalikda jangovar-taktik harakatlarni bajarishdi. Mashg‘ulotlarda 4 000 kishiga yaqin va 700 ta texnika birligi ishtirok etdi. Ushbu mashg‘ulotlarda quruqlik, havo va dengiz bo‘linmalari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan taktik vazifalar amalga oshirildi.



Xalqaro tashabbuslar orasida Hindiston bilan hamkorlikda o'tkaziladigan "Do'stlik – 2024" o'quv mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. 2024 yilda "Termiz" poligonida ushbu o'quv mashg'ulotlarining beshinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Mashg'ulotlarda quruqlik va harbiy havo kuchlari mutaxassislari ishtirok etdi. Asosiy e'tibor terrorizmga qarshi kurash va boshqa operatsiyalarda bo'linmalar o'rtasidagi muvofiqlik va jipslikni oshirishga qaratildi.

2024 yilda Qozog'iston Qurolli Kuchlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan "HANJAR – 2024" taktik maxsus o'quv mashg'ulotlari armiyamiz jangovar faoliyatida yana bir muhim voqeа bo'ldi. O'n kunlik manyovrlar davomida "Forish" tog' poligonida binolarni tozalash, minomyotchilar, pulemyotchilar va snayperlarning harakatlari, shuningdek, jangovar bronetexnikani qo'llash bo'yicha amaliy harakatlar bajarildi. O'quv mashg'ulotlari natijalari o'zbek harbiylarining har qanday murakkab vazifalarni bajarishga tayyorligini yana bir bor isbotladi [3].

### **Xulosa:**

Armiyaning 33 yilligini nishonlash bu – nafaqat Vatan himoyachilarini qutlash, balki kelajak haqida o'ylash uchun ham bir imkoniyatdir. Chunki kuchli armiya – kuchli O'zbekiston demakdir, bu uning o'z kuchi va kelajagiga ishonch bilan qarashiga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari 33 yil davomida ushbu abadiy tamoyillarning yorqin aksini namoyon etib kelmoqda. Bugun ular barqarorlik, qatiyat va takomilga intilish timsolidir. Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida armiya zamonaviy texnologiyalarni boy tarixiy meros bilan uyg'unlashtirgan holda o'z mavqeini yanada mustahkamlamoqda.

O'zbekiston armiyasi – tinchlik kafolati, milliy g'urur ramzi va yorug' kelajak umididir. U nafaqat Vatanni himoya qiladi, balki har bir fuqaroning o'z mamlakati buyukligi va kuchi haqida ishonchini mustahkamlaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [globalfirepower.com>country-military-strength-...](http://globalfirepower.com/country-military-strength-...)
2. “News and World Report” 2024 yil 1 oktabr kunidagi jurnali.
3. [https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qurolli-kuchlari-33-yillik-sharafli-tarixga-bir-nazar\\_672134](https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qurolli-kuchlari-33-yillik-sharafli-tarixga-bir-nazar_672134)
4. „[Dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingi e’lon qilindi. O‘zbekiston nechanchi o‘rinda?](#)“ (uz). Qaraldi: 11-dekabr.
5. „[2024 Military Strength Ranking](#)“ (en). Qaraldi: 11-dekabr.